

25-Sentyabr, 2026-yil

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASINING SAMARADORLIGI

Turganbekova Gulsiyma

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Lingvistik kompetensiya o‘quvchining til birliklarini anglash, ularning ma‘nosi va vazifasini farqlash, grammatik me‘yorlardan foydalanish, so‘z va gaplarni to‘g‘ri tuzish hamda o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq ifodalash qobiliyatlari bilan bog‘liq holda talqin etilgan. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida fonetika, leksika, grammatika, so‘z yasalishi, imlo va bog‘lanishli nutq ustida ishlashning o‘zaro uzviyligi tahlil qilingan. Shuningdek, muammoli vaziyat, savol-javob, taqqoslash, guruhli va juftlikdagi ish, lingvistik mashqlar, matn bilan ishlash hamda ijodiy topshiriqlardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada lingvistik kompetensiyani shakllantirish samaradorligini baholashda faqat nazariy bilimni emas, balki o‘quvchining til birliklaridan amaliy nutqiy vaziyatlarda foydalana olish qobiliyatini ham hisobga olish zarurligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta‘lim, ona tili, lingvistik kompetensiya, til kompetensiyasi, nutqiy faoliyat, grammatik bilim, lug‘at boyligi, imlo, lingvistik mashqlar, interfaol metodlar, nutqiy ko‘nikma, ta‘lim samaradorligi.*

Аннотация: *В данной статье освещены теоретические и методические основы формирования лингвистической компетенции учащихся на уроках родного языка в начальных классах. Лингвистическая компетенция рассматривается как способность учащегося понимать языковые единицы, различать их значение и функции, соблюдать грамматические нормы, правильно строить слова и предложения, а также точно выражать свои мысли в устной и письменной форме. Проанализирована взаимосвязь работы над фонетикой, лексикой, грамматикой, словообразованием, орфографией и связной речью на этапе начального образования. Также рассмотрены возможности использования проблемных ситуаций, вопросов и ответов, сравнения, групповой и парной работы, лингвистических упражнений, работы с текстом и творческих заданий. В статье обоснована необходимость при оценке эффективности формирования лингвистической компетенции учитывать не только теоретические знания, но и способность учащегося практически использовать языковые единицы в различных речевых ситуациях.*

Ключевые слова: *начальное образование, родной язык, лингвистическая компетенция, языковая компетенция, речевая деятельность, грамматические знания, словарный запас, орфография, лингвистические упражнения, интерактивные методы, речевые навыки, эффективность обучения.*

Abstract: *This article examines the theoretical and methodological foundations of developing students' linguistic competence in mother tongue lessons in primary grades. Linguistic competence is interpreted as the ability of students to understand language units, distinguish their meanings and functions, use grammatical norms correctly, construct words and sentences accurately, and express their thoughts clearly in both oral and written forms. The study analyzes the interrelationship between work on phonetics, vocabulary, grammar, word formation, spelling, and coherent speech at the primary education level. It also considers the possibilities of using problem-based situations, question-and-answer activities, comparison, group and pair work, linguistic exercises, text-based activities, and creative tasks. The article substantiates the need to assess not only theoretical knowledge but also students' ability to apply language units practically in various communicative situations when evaluating the effectiveness of linguistic competence development.*

Keywords: *primary education, mother tongue, linguistic competence, language competence, speech activity, grammatical knowledge, vocabulary, spelling, linguistic exercises, interactive methods, speech skills, educational effectiveness.*

KIRISH

Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchining keyingi ta‘lim faoliyati uchun zarur bo‘lgan asosiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslari o‘quvchining fikrlash, tinglash, gapirish, o‘qish va yozish faoliyatlari rivojida muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchi ona tili vositasida nafaqat til haqidagi nazariy bilimlarni egallaydi, balki o‘z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkazish, berilgan axborotni anglash, so‘zlarning ma‘nosini kontekst asosida tushunish va grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalashni ham o‘rganadi.

Amaldagi ta‘lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish tartibida ta‘lim oluvchilarda tegishli bosqich yakunida shakllanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni belgilash hamda ta‘lim natijalarini ta‘lim maqsadlari bilan bog‘lashga alohida e‘tibor qaratilgan. Boshlang‘ich ta‘lim esa I–IV sinflarni qamrab oladi.

Shu nuqtayi nazardan, ona tili ta‘limini faqat grammatik qoidalarni yod oldirishga yo‘naltirish yetarli emas. O‘quvchi o‘rgangan qoidalarini amaliy faoliyatda qo‘llay olishi, so‘z va gaplarni vaziyatga mos tanlashi, nutqida adabiy til me‘yorlariga amal qilishi lozim. Bunday yondashuv lingvistik kompetensiyani shakllantirish masalasini dolzarb pedagogik-metodik muammolardan biriga aylantiradi.

Maqolamizning sosiy maqsadi boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lingvistik kompetensiyani shakllantirishning mazmuni, metodlari va samaradorlik shartlarini ilmiy-metodik jihatdan yoritishdan iborat.

Asosiy qism

Lingvistik kompetensiya tushunchasi o‘quvchining til tizimi haqidagi bilimlari va ushbu bilimlarni nutqiy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi. Boshlang‘ich ta‘lim sharoitida mazkur kompetensiya alohida bir mavzu doirasida emas, balki ona tili fanining turli bo‘limlarini o‘zaro bog‘lagan holda shakllantiriladi. Fonetika va grafika, leksika,

grammatika, so‘z yasalihi, imlo hamda bog‘lanishli nutqni o‘stirish ishlari bir-birini to‘ldirib boradi.

K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva va Sh. Sariyev tomonidan tayyorlangan “Ona tili o‘qitish metodikasi” darsligida boshlang‘ich sinf ona tili ta‘limining savod o‘rgatish, fonetika, grafika, grammatika, so‘z yasalihi, imlo va bog‘lanishli nutqni o‘stirish kabi yo‘nalishlari yoritilgan. Mualliflar nazariy ma‘lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullariga ham e‘tibor qaratgan.

Demak, lingvistik kompetensiyani shakllantirishni faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish bilan chegaralash to‘g‘ri emas. Masalan, o‘quvchi ot yoki fe‘lning ta‘rifini bilishi bilan birga, ushbu so‘z turkumlaridan gap tuzishda to‘g‘ri foydalanishi, ularning gapdagi vazifasini anglay olishi va nutq mazmuniga mos so‘zlarni tanlay olishi kerak.

Lingvistik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri fonetik bilim va ko‘nikmalardir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi tovush va harfni farqlash, so‘z tarkibidagi tovushlarni kuzatish, bo‘g‘inlarga ajratish, talaffuz va yozuv o‘rtasidagi munosabatni anglash orqali keyingi savodxonlik faoliyati uchun zarur asosni egallaydi. Fonetik mashqlarni faqat nazariy ta‘riflarni takrorlash shaklida tashkil etishdan ko‘ra, so‘zlarni taqqoslash, tovushlarni aniqlash, berilgan tovush ishtirokidagi so‘zlarni topish, talaffuz va yozuvdagi farqlarni kuzatish kabi amaliy topshiriqlar bilan boyitish maqsadga muvofiq.

Leksik kompetensiyani shakllantirish ham lingvistik rivojlanishning muhim yo‘nalishidir. O‘quvchining lug‘at boyligi qancha keng bo‘lsa, uning fikrini aniq ifodalash imkoniyati ham shuncha kengayadi. Shu sababli ona tili darslarida yangi so‘zlarning ma‘nosini tushuntirish bilan bir qatorda, ularni gap va matn tarkibida qo‘llashga e‘tibor qaratish lozim. Bir so‘zning turli vaziyatlarda qanday ma‘no ifodalashi, ma‘nodosh va zid ma‘noli so‘zlar, so‘zlarning o‘zaro mazmuniy munosabati kabi masalalarni sodda va yoshga mos topshiriqlar asosida o‘rgatish o‘quvchilarning so‘z boyligini faol nutqqa olib kirishga xizmat qiladi.

Grammatik bilimlar lingvistik kompetensiyaning yana bir muhim tarkibiy qismidir. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar so‘z turkumlari, so‘zlarning shakliy o‘zgarishi, gap bo‘laklari va gap qurilishi haqida dastlabki bilimlarni egallaydilar. Bunda grammatik qoidani yodlatishdan ko‘ra, o‘quvchining til materialini kuzatishi, taqqoslashi va xulosa chiqarishiga sharoit yaratish samarali metodik yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga bir nechta gap berib, ulardan ma‘lum so‘zlarni topishni, bu so‘zlarning qanday savollarga javob bo‘lishini aniqlashni va gapdagi vazifasini kuzatishni so‘rashi mumkin. Bunday topshiriqda o‘quvchi tayyor ta‘rifni qabul qiluvchi emas, balki til hodisasini kuzatuvchi va tahlil qiluvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Keyinchalik kuzatish natijasida grammatik qoida umumlashtiriladi.

Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda matn bilan ishlash alohida ahamiyatga ega. Chunki til birliklari o‘zining haqiqiy kommunikativ vazifasini ko‘pincha matn va nutqiy vaziyatda namoyon qiladi. Shu sababli o‘quvchilarga faqat alohida so‘z va gaplarni emas, balki kichik hajmdagi yaxlit matnlarni tahlil qildirish foydalidir. Matndan ma‘lum so‘z turkumlarini topish, gaplarning mazmuniy bog‘lanishini aniqlash, tushunarsiz so‘zlarning

ma’nosini kontekst orqali izohlash, matnni davom ettirish yoki qayta tuzish kabi topshiriqlar bir vaqtning o‘zida bir necha lingvistik ko‘nikmani rivojlantiradi.

Matn bilan ishlashning yana bir imkoniyati o‘quvchining grammatik bilimlarini nutqiy faoliyat bilan bog‘lashdir. Masalan, o‘quvchidan berilgan matndagi ayrim gaplarni o‘zgartirish, sinonimlardan foydalanib qayta tuzish, matn mazmuniga mos sarlavha topish yoki matn asosida savollarga javob berish talab qilinsa, u til birliklaridan maqsadli foydalanishga o‘rganadi.

Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish ham muhim metodik imkoniyatlarga ega. Interfaol yondashuv o‘quvchining darsdagi faolligini oshirish, uni fikr bildirishga, o‘z javobini izohlashga va boshqa o‘quvchilarning fikrlarini tinglashga undaydi. Bunda “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Taqqimot”, juftlikda ishlash, guruhli topshiriqlar, taqqoslash, muammoli savollar kabi usullardan mavzuning mazmuniga mos ravishda foydalanish mumkin.

Biroq interfaol metodning o‘zi ta’lim samaradorligini avtomatik ravishda ta’minlamaydi. Uning samaradorligi topshiriqning aniq maqsadga yo‘naltirilgani, o‘quvchilarning yosh va bilim darajasiga mosligi hamda o‘rganilayotgan lingvistik hodisa bilan bevosita bog‘langaniga bog‘liq. Shuning uchun ona tili darsida metodni “qiziqarli” bo‘lgani uchun emas, balki muayyan lingvistik ko‘nikmani shakllantirishga xizmat qilgani uchun tanlash maqsadga muvofiq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish ham metodikaning samaradorligini belgilovchi omillardan biridir. Dars jarayonida bir xil faoliyatni uzoq davom ettirish o‘quvchining e’tiborini susaytirishi mumkin. Shu sababli nazariy tushuntirish, og‘zaki mashq, yozma topshiriq, juftlik yoki guruhdagi faoliyat, matn bilan ishlash va ijodiy topshiriqlarni o‘zaro almashtirib borish maqsadga muvofiq.

2026-yilda nashr etilgan “Ona tili, o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi ham boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish mazmuni, vazifalari hamda bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish masalalarini yoritishga qaratilgan.

Lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda mustaqil va ijodiy topshiriqlar ham samarali vosita bo‘la oladi. Masalan, o‘quvchiga ma’lum so‘zlardan gap tuzish, gapni davom ettirish, berilgan so‘zning ma’nodoshini topish, matndagi xatolarni aniqlash, bir fikrni turli shakllarda ifodalash, rasm asosida kichik matn yaratish kabi vazifalar berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar til haqidagi bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi.

Shuningdek, differensial yondashuvdan foydalanish ham muhimdir. Bir sinfdagi barcha o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish sur’ati bir xil bo‘lmasligi tabiiy. Ayrim o‘quvchilar grammatik qoidalarni tez o‘zlashtirsa, boshqalari ularni amaliy qo‘llashda qo‘shimcha mashqqa ehtiyoj sezishi mumkin. Shuning uchun topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra farqlash, qo‘shimcha yordamga muhtoj o‘quvchilar uchun tayanch so‘zlar yoki namunalar berish, tez o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun esa ijodiy va tahliliy vazifalar taklif qilish mumkin.

Lingvistik kompetensiyani shakllantirish metodikasining samaradorligini aniqlashda baholash mezonlari ham aniq bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchining faqat qoidani aytib bera olishi emas, balki uni amalda qo‘llay olishi hisobga olinishi lozim. Masalan, quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin: til hodisasini tanish va ajrata olish; grammatik qoidani tushuntira olish; berilgan qoidani amaliy topshiriqda qo‘llash; so‘z va gaplarni to‘g‘ri tuzish; imlo me‘yorlariga rioya qilish; o‘z fikrini izchil va tushunarli ifodalash.

Shu jihatdan “biladi - tushunadi - qo‘llaydi - mustaqil nutqda foydalanadi” ketma-ketligi lingvistik kompetensiyaning rivojlanishini kuzatish uchun metodik jihatdan qulay mezon bo‘lishi mumkin. O‘quvchi qoidani yoddan aytib berishi uning kompetensiyasi to‘liq shakllanganini anglatmaydi. Asosiy natija bilimning amaliy nutqiy faoliyatga ko‘chirilishida namoyon bo‘ladi.

Lingvistik kompetensiyani shakllantirish jarayonida o‘qituvchining savol berish texnikasi ham katta ahamiyatga ega. “Bu nima?”, “Qoidani ayting” kabi reproduktiv savollar bilan bir qatorda “Nima uchun bu so‘z shu shaklda qo‘llangan?”, “Agar ushbu so‘zni boshqa so‘z bilan almashtirsak, gap mazmuni qanday o‘zgaradi?”, “Qaysi variant nutq uchun aniqroq?” kabi tahliliy savollardan foydalanish o‘quvchining fikrlash faoliyatini faollashtiradi.

Ona tili darslarida lingvistik kompetensiyani shakllantirishning yana bir muhim sharti nazariya va amaliyotning uzviyligidir. O‘quvchi yangi grammatik tushuncha bilan tanishgach, uni darhol amaliy misollar orqali mustahkamlashi zarur. Keyingi bosqichda esa ushbu bilimni mustaqil nutqiy faoliyatga tatbiq etish imkoniyati yaratiladi. Shu tarzda dars jarayonida “qoida - mashq - tahlil - mustaqil qo‘llash” tizimi yuzaga keladi.

Umuman olganda, lingvistik kompetensiyani shakllantirish samaradorligi birgina metodga emas, balki o‘zaro bog‘langan metodik omillar tizimiga bog‘liq. Bular qatoriga ta‘lim mazmunining izchilligi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, amaliy va kommunikativ topshiriqlardan foydalanish, matn bilan ishlash, individual va differensial yondashuv, muntazam baholash hamda o‘quvchining mustaqil fikrlashiga sharoit yaratish kiradi.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lingvistik kompetensiyani shakllantirish o‘quvchilarning faqat til haqidagi nazariy bilimlarini kengaytirish bilan cheklanmay, ushbu bilimlarni amaliy nutqiy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltirilishi lozim. Lingvistik kompetensiyaning shakllanishi fonetik, leksik, grammatik va imloviy bilimlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning og‘zaki va yozma nutqda amaliy qo‘llanishi orqali ta‘minlanadi.

Samarali metodika o‘quvchini tayyor qoidani yodlovchi emas, balki til hodisalarini kuzatuvchi, taqqoslovchi, tahlil qiluvchi va o‘z nutqida qo‘llay oluvchi faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Shu sababli ona tili darslarida matn bilan ishlash, lingvistik mashqlar, muammoli savollar, juftlik va guruhli faoliyat, ijodiy topshiriqlar hamda differensial yondashuvdan maqsadli foydalanish muhimdir.

Lingvistik kompetensiyani baholashda ham o‘quvchining qoidani qay darajada yod olgani bilan cheklanib qolmasdan, uni yangi vaziyatda qo‘llay olishi, fikrini grammatik va

25-Sentyabr, 2026-yil

mazmunij jihatdan to‘g‘ri ifodalashi, so‘zlarni maqsadga muvofiq tanlashi va yozma nutqda adabiy til me‘yorlariga amal qilishi hisobga olinishi zarur.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf ona tili ta‘limida kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirgan metodik tizim o‘quvchilarning til birliklarini ongli o‘zlashtirishi va ularni real nutqiy faoliyatda qo‘llashiga metodik sharoit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: Noshir, 2009.
2. Matchonov S., Bakiyeva H., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021.
3. Qahhorova A.Sh. Ona tili, o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma, 2026.
4. Mo‘minova G.G. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda lingvistik kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi. Avtoreferat, 2025.
5. Kuranbayeva X.A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish (ona tili va o‘qish savodxonligi darslari misolida). Avtoreferat, 2025.